



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Tursunoy Yusupova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining dotsenti

ONA TILI O'QITUVCHISI VA KREATIVLIK

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayoniga "kreativlik" tushunchasining kirib kelishining muhim ahamiyat kasb etishi va uning o'qituvchi ijodkorligi va o'qitish jarayoniga tabiiq eta olishi masalalari, fan o'qituvchisining kreativligini ona tili fani bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, o'quv manbalarini yaratish, ona tili ta'limi jarayoni loyahasini tayyorlash, fan yuzasidan nazorat va sinov topshiriqlarini shakllantirish, ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish, fanni o'qitishga doir ilmiy-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish, ona tilini o'qitishiga doir respublika miqyosidagi anjumanlarda faol ishtirok etish, ilmiy-metodik ishlarni chop ettirishda ekanligi haqidagi fikrlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, ta'lim jarayoni, o'qituvchi ijodkorligi, ona tili darslari, davlat ta'lim standarti, loyihalashtirish



Ta'lim jarayoniga "kreativlik" tushunchasining kirib kelishi va tatbiq etilishi boshqa fanlar qatori ona tili ta'limida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchining ijodkorligi va o'qitishga ijodiy yondashishi davr talabi hisoblanadi. Ayniqsa, ham o'qituvchida, ham talaba (o'quvchi)da kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasi jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatdir. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamalakatlarining ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman, Ken Robinson, Fisher, Frey, Begetto, Kaufman, Ali, Treffinger va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar natijalarida ko'rish mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum qiymatga ega bo'lishi lozim". Emabaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir¹.

Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o'qituvchilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agar o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida,

¹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.



gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdir².

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har nomonlama fikrlash talaba (o'quvchilardan)lardan o'quv topshirig'i va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oya-larga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yu-zasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriq va vazifani bajarishda talaba yechimning bir necha varian-tini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mum-kin: **Kreativlik** (lot...ingl... "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqatida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "tala-ba (o'quvchi)lar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Kreativ fikrlash ijtimoiy-gumanitar sohalarning har birida yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi.

Ta'lim jarayonini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni o'ziga xos va qiziqarli tarzda jo'shqinlik, zavqu shavq bilan tashkil etayotgan o'qituvchini ko'z oldimizga keltiraylik. U, garchi, o'zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasa-da, biroq kreativlikni namoyon etuvchi ta'lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod,

² Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p.4.




usullarni qo'llayotganidan o'zi ham mamnun, qolaversa, talaba (o'quvchi)larning minnatdor bo'lishlariga erishadi. O'qituvchi ta'lim jarayonida kreativ metod va usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga ham nisbatan ishonchi ortadi.

Ona tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida fan o'qituvchisining kreativligi har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ulardan asosiylari quyidagilardir: 1) ona tili fani bo'yicha me'yoriy hujjatlar (o'quv fani bo'yicha DTS, o'quv dasturi va rejalari)ni tayyorlash; 2) ona tilida o'quv manbalari (darslik, o'quv-metodik va metodik qo'llanma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya)ni yaratish; 3) ona tili ta'limi jarayoni loyihasini tayyorlash; 4) ona tili fanidan nazorat va sinov topshiriqlarini shakllantirish; 5) ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish; 6) ona tilini o'qitishga doir ilmiy-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish; 7) ta'lim bosqichlarida ona tili o'qitilishiga doir respublika miqyosidagi anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish; 8) til ta'limiga oid ilmiy-metodik (risola, metodik qo'llanma, ilmiy maqola, tezis) ishlarni chop ettirish. Demak, bulardan eng asosiylari sifatida uchtasini alohida ta'kidlash mumkin: 1) ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish; 2) ona tili ta'limi jarayoni loyihasini tayyorlash; 3) ona tili fanidan nazorat va sinov topshiriqlarini shakllantirish.

O'qituvchi o'quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishi uchun ularda kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishi, mavjud imkoniyatlardan foydalanish chora-tadbirlarini belgilashi, shakl, metod va vositalar tizimini asoslashi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlashi, o'quvchi (talaba) o'zlashtirgan nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiq etishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Bular ushbu jarayonda samaradorlikka erishishni to'la kafolatlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, o'qituvchi ona tili mashg'ulotlarini qiziqarli, jonli va jo'shqin tashkil etish, mashg'ulot loyihasini tayyorlash hamda nazorat va sinov topshiriqlarini shakllantirishda an'anaviy va noan'anaviy ta'limda qat'iy amal qilinishi lozim bo'lgan ushbu o'qitish maqsadiga diqqatini qaratishi lozim (ularni "Klaster" grafik organayzeri ko'rinishida taqdim etamiz):



Demak, ijodkor o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etishda an'anaviy va noan'anaviy ta'limning o'ziga xos jihatlarini o'zaro bir-biriga integratsiyalashi lozim. Chunki bugungi kunda ona tili ta'limini tashkillashtirishda bir tomonlama ish olib borish yaramaydi. Beriladigan bilimlarning o'quvchilarga yetkazilishida tushuntirish o'ta zarur bo'lganidek, darsni o'ta qiziqarli, jonli va jo'shqin tashkil etish ham kerakki, o'quvchi darsda zerkarli holatga tushib qolmasligi lozim. Shu bilan birga, o'quvchilarda tayyor bilimlarni egallash emas, balki mustaqil o'rganish va o'zlashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish lozimligini yoddan chiqarmaslik juda zarur.

O'qituvchida kreativlikning mavjudligi ta'lim jarayonini yuqorida ta'kidlab o'tilgan kreativlikning o'ziga xos jihatlariga faoliyatida davomida amal qilingani va ta'lim jarayoniga uni tatbiq etgani bilan belgilanadi. Chunonchi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorda ham "Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish zarur" deb alohida uqtirib o'tilgan³.

³ O'zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarori. 2016 yil 29-dekabr.